

BERDAQ IJODINING BOY VA MAZMUNLI XOTIRASI

Xoliqova Gullola Yoqub qizi

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 4-kurs talabasi

Turobova Moxichexra Xolbek qizi

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 2-kurs talabasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Toshkent shahrida tashkil etilgan Adiblar xiyoboniga 2020-yil 20-may kuni tashrifi davomida xiyobonning butun xalqimiz, ayniqsa yoshlar uchun tom ma’noda adabiyot, ma’naviyat va tarbiya maskaniga aylantirish, har bir adib ijodini chuqur o‘rganish, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etishga doir vazifalar ijrosini amalga oshirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi “Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish hamda Adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 502-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li Berdaq hayoti va faoliyati, ijod mahoratini o‘rganish va keng miqyosda targ‘ib etish maqsadga muvofiq.

Qoraqalpoq diyori o‘zining dunyoda o‘xhashi yo‘q betakror, boy va yuksak san’ati bilan barchamizni hayratga solib kelgan. Qoraqalpoq adabiyotining o‘z yo‘nalishi, uslubi va fikriga ega xalq shoiri Berdaq haqida so‘z ketganda Berdaq Qarg‘aboy o‘g‘li XIX asrning birinchi choragida 1827-yil 9-noyabrdagi Qoraqalpoq Qo‘ng‘irot beyligiga qarashli Amudaryo Orol dengizining Quyliko‘l ovulida dehqon oilasida tug‘ilgan. Berdaq o‘z davrining ziyoli, o‘ziga xos teran fikrli, o‘z zamandoshlaridan ko‘ra yangicha fikrli va yuksak mavqega ega shaxs bo‘lgan.

Boshlang‘ich ta’limni avval ovul mакtabida, so‘ngra esa madrasada tahsil olgan. Berdaq o‘ziga ustoz deb bilgan Alisher Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli va qoraqalpoq shoiri Kunxo‘ja kabi shoirlarni asarlarini chuqur mutola qilgan, ulardan o‘rgangan. U

tarixni va xalq, og‘zaki ijodini yaxshi bilgan. Berdaqning lirik she’rlarida, dostonlarida qoraqalpoq xalqining 18-19-asrlardagi ijtimoiy hayoti o‘z ifodasini topgan. U o‘z davri voqealariga, ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baho beradi. Xususan Qoraqalpog‘istonning shahar va tumanlarida, ma’naviyat va marifat maskanlarida Berdaqxonlik tadbirlari o‘tkazish har yillik an’anaga aylangan. Berdaqning she’r va dostonlaridan yosh avlod vakillari tomonidan namunalar o‘qiladi. Berdaq siyoshi haqiqiy ma’noda nainki qoraqalpoq, balki butun turkiy xalqlarning g‘urur va iftixori timsoliga aylangan. Berdaq ijodining xarakterli belgilari xalq og‘ir va mashaqqatli hayotining haqqoniy tasviri, nohaqliklarni fosh qilmoq, baxtli kelajak to‘g‘risida orzu-umidlardan iborat. Mavzularning kengligi va rang-barangligi, tilining boyligi va obrazliligi, she’r shakllarining mukammalligi, eng muhimi chuqur g‘oyaviy mazmun, xalqchilik va demokratizm, haqqoniyat va gumanizm, fuqarolik jasorati-mana shularning barchasi Berdaq asarlarining abadiyligini ta’minlovchi omillardir. Berdaq ijodiy merosining ahamiyati qoraqalpoq xalqi milliy madaniyati chegaralaridan tashqariga ham chiqib ketadi. Uning asarlaridagi adolatparvarlik, gumanizm g‘oyalari, ijtimoiy huquqsizlikka qarshi, zulm va zo‘ravonlikka qarshi kurash g‘oyalari barcha taraqqiyparvar kishilar qalbiga hamohangdir. O‘z xalqining jonkuyar g‘amxo‘ri bo‘lgan vatanparvar shoir ayni zamonda tom ma’nodagi internationalist ham edi. Uning dushmanlari Xiva xonlari, qoraqalpoq soliq yig‘uvchilari va eshonlardir. Uning do‘słlari, qaysi xalqqa, uruqqa mansub bo‘lganidan, kimligidan qat’iy nazar, mazlum kambag‘allardir. Uning muhtaramlari Aristotel, Platon, Navoiy, Fuzuliy, Firdavsiy, Bedil, Maxtumquli, Andalib, Kunxo‘ja, Ajiniyoz. Qoraqalpoq shoiri Otashning aytishiga ko‘ra, Berdaq vafot etganida marhumni faqatgina qoraqalpoqlar emas, balki o‘zbeklar, qozoqlar, tatarlar va ruslar ham so‘nggi manzilga kuzatib borganlar.

O‘z shoirona xayollarida Berdaq xalq taqdirini kim hal qilajagi to‘g‘risida ko‘p o‘ylanar edi. Ollohami? Bunga umid bog‘lamoq mushkul. Goho adolatli podshoh to‘g‘risida fikr tug‘iladi. Ammo bu fikrni ham darhol rad etmoqqa to‘g‘ri keladi. Chunki Dunyo dunyo bo‘lgandan, podshoh odil bo‘lgan emas. Odamga bemehr jallo beomon, elni ko‘p yig‘latar otaliq va xon (Ko‘rindi). Shaxzodlar xonu beklar hech

adolatli bo‘lmadi (Qolmadi). Bu dunyoning vafosi yo‘q (Qolmadi). Shoirning ideali zulmkorlarga qarshi kurashga bosh bo‘la oluvchi xalqning chekkan mashaqqatlari uchun qasoskor, xalqqa ozodlik va baxt-saodat keltira oluvchi xalq qahramonlaridir. So‘zimning oxirida Qoraqalpoq xalqining buyuk adiblaridan biri Berdaq Qarg‘aboy o‘g‘lining ijodi va hayot yolini chuqur o‘rganmog‘imiz, yoshlarimiz o‘rtasida keng targ‘ib qilish ishlarini yanada jlonlantirish lozim. Berdaq hayoti va ijodini targ‘ib qilishda innovatsiyalardan keng foydalanib Berdaqning sherlarini zamonaviy tarzda kuylanishini, asarlaridan sahnalashtrilgan qisqa video lavxalarni tayyorlash hamda kino filmlar yaratish orqali ijodkorning faoliyatini yoritish orqali ham xalqimiz qalbini, ham adabiyotimiz zarvaraqlarini yanada boyitish kerak deb o‘layman.

Xulosa o‘rnida shuni takidlaymiz Berdaq ijodini o‘rganish bu avvalo yoshlarimizni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga, kasbiga sadoqat, vatanga muhabbat, xal xizmatida bo‘lish kabi oliyjanab insoniylikni targ‘ib qiluvchi yuksak insoniylikni tarannum qiladigan asarlar bitgan shoir bu Berdaq desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Doimo shoir ijodiga xurmat va ehtromda bo‘lish avvalo insoniylikni ulug‘lash shoirning bosh maqsadi bo‘lganligi uning asarlarida namoyon bo‘ladi, shuning uchun ham shoir ijodi doimo barhayot bo‘lib o‘z mazmun mohiyatini yo‘qotmasdan bizgacha yetib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi xalqlari adabiyoti (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, 2007) o‘quv qo‘llanmasidan.
2. B. Qurbonboyev Berdaq va o‘zbek adabiyoti, T., 1986.
3. Berdaq milliy madaniyatimizning buyuk namoyondasi nomli metodik qo‘llanma. Nukus 2017-yil.